Abdisattorov. A. A.
Farg‘ona davlat universiteti Pedagogika-pisixologiya va San’atshunoslik fakulteti
Vokal va cholg‘u ijrochiligi kafedrasi katta o‘qituvchisi

O‘ZBEK XALQI MUSIQASINING USLUBLARI

Annotatsiya: *Mazkur maqolada xalq musiqa ijodi uning davri va uslublari yoritilgan.*
Kalit so‘zlar*: Musiqa, Uslublar. Folklor, katta ashula*

Muhtaram Prezidentimiz takidlaganlariday, ma’naviyat masalasi millat tarixi, axloqiy va diniy qadriyatlar, madaniy meros, an’ana va rasm - rusumlar, milliy mafkura, vatanparvarlik va insonparvarlik, milliy o‘zlikni anglash singari juda ko‘p omillarni o‘z ichiga oladi va pirovardida, inson shaxsini belgilashda asosiy mezon vazifasini bajaradi.

O‘zbek xalqining musiqa madaniyati juda uzoq tarixga ega. Tarixiy taraqqiyot davomida xalq mumtoz musiqasi, an’anaviy kasbiy musiqa, xalq bastakorlik yo‘llari, shuningdek, folk¬lor - havaskorlik musiqiy merosi singari shaklan va usluban bir-biriga yaqin ijrochilik ko‘rinishlari bir-birini to‘ldirib keldi. Ushbu musiqiy merosimiz bugungi kunimizda ham ma’naviy madaniyatimizning bir bo‘lagi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mustaqillik sharofati bilan milliy-ma’naviy qadriyatlarimizga, urf-odatlarimizga, unutilayozgan, tarixan qadrli an’analarimizga bo‘lgan e’tibor, ularni yangidan isloh etish jarayoni ustuvor yo‘nalish kasb etdi.

Milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, ma’naviy boyligimizga bo‘lgan etibor davlat miqyosiga ko‘tarildi. Musta¬qillikning dastlabki yillaridanoq ota-bobolarimizdan, aj¬dod¬¬la¬ri¬mizdan qolgan ma’naviy boyliklarni, jumladan, musi¬qiy madaniyatni avaylab asrash, tiklash borasida, qolaversa, zamon bilan hamohang qadam tashlash borasida talaygina ishlar qilin¬di. Bu borada o‘tgan ajdodlarimiz bizlarga meros qilib qol¬dirib ketgan ulkan ma’naviy boyligimiz asosiy omil bo‘¬lib xizmat qilmoqda.

Tarixdan ma’lum, ma’naviyatimizning asosiy bo‘g‘ini bo‘l¬gan musiqiy madaniyatimiz, an’anaviy qo‘shiqlarimiz, maqom ijrolari hamisha xalqimizning kundalik hayotida ma’naviy ozuqa sifatida e’tirof etib kelingan. Xalqning og‘ir kunlarida musiqadan najot izlagan, xursandchilik kunlarida ham qo‘shiq va musiqa ularga hamroh bo‘lgan.

Ashula, musiqa, raqs, fol’klor ijrochiligi san’ati milliy musiqa san’atining xalq hayoti va ijodi bilan chambarchas bog‘liq holda paydo bo‘lgan va rivojlanib kelgan qadimiy san’at turlaridan hisoblanadi. Ayniqsa, xalqimizning an’anaviy ruhdagi qo‘shiqlari o‘lmas meros bo‘lib, barcha davrlardagidek bugun ham “labbay” deb javob bermoqda. Lekin shu bilan bir qatorda faqat tarixga sajda qilmay, bugungi kunning ruhiga mos tarzda qo‘shiqlar yaratish esa milliy mafkuramizni rivojlantirishda bosh omillardan bo‘lmish musiqiy san’at bilan shug‘ullanayotgan barcha mutaxassis va san’atkorlarga muhim vazifa qilib qo‘yilishi tabiiydir. Mamlakatimiz

tamomila yangi jamiyat, yangi turmush va yangi hayotni boshlab yubordi. Odamlari¬miz qalbi, tafakkuri va tasavvurida o‘zgarishlar paydo bo‘ldi.

Surxandaryo - Qashqadaryo musiqa uslubi deganda, asrlar davomida shakllangan mehnat aytimlari, mavsumiy marosim qo‘shiqlari , cho‘ponlar ijodi, baxshilar san’ati va xalq ijodiga oid yana ko‘plab aytim va cholg‘u kuylari tushuniladi. Shuni ham aytish kerakki musiqiy an’analarning kelib chiqish negizlari qadimiy davrlarga ta’aluqli bo‘lib, ular turli vaziyatlarda xalqning turmush tarzi bilan bog‘liq turfa ko‘rinishlarda xususan mehnat jarayonlarida, uy sharoitida o‘tkaziladigan urf odat va marosimlarda ommaviy sayil va tantanalarda yuzaga keladi. Surxandaryo – Qashqadaryo xududlarida yashovchi mahalliy aholi uzoq davrlardan buyon chorvadorlik va dehqonchilik bilan bilan shug‘ullanib keladi, shu bois ham bu yerlarda mehnat jarayonlari bilan bog‘liq aytim va cho‘pon kuylari juda ko‘plab ijod etilgan. Dastlab iste’dodlilar tomonidan aytilib, keyinchalik xalq orasida ommalashgan mehnat qo‘shiqlari bizga qadar xalq xotirasida va mehnat amaliy tajribasi faoliyatida saqlanib kelindi. Musiqiy merosning ulkan qismi bo‘lgan dostonlarni baxshilar o‘z xotiralari va ijodlarida saqlab, ijro etib kelmoqdalar. Surxandaryo – Qashqadaryo an’anaviy cholg‘ulari dombira, qo‘biz, cho‘pon nay, sibiziq, chanqo‘bizlar uzoq o‘tmishdan buyon mahalliy aholi orasida ardoqlanib, turfa kuylar ijro etib kelinmoqda.

Terma - biror bir doston ijrosidan oldin baxshi tomonidan kuylanadigan aytim bo‘lib, bunda baxshi o‘z bisotidagi bor dostonlarni qisqacha tavsiflaydi va shu tariqa tinglovchilarga qarata qay dostondan kuylayin deb murojaat etadi. Tinglovchilar tanlovi, tilak – ixtiyoriga ko‘ra dostonlarni kuylaydi.

Buxoro –Samarqand musiqa uslubi deganda, Buxoro va Samarqand shaharlari va viloyatlari hududida qaror topgan musiqiy an’analar tushuniladi. Diyorimizning qadimiy madaniyat maskanlari bo‘lmish bu vohalarda xalq qo‘shiqlari, ashulalari cholg‘u kuylari, qarsak o‘yin aytimlari hamda kasbiy musiqaga doir dostonchilik, sozanda san’ati va maqom na’munalari keng o‘rin tutadi.

Buxoro Samarqand musiqa uslubida sozandalik san’ati ham rivojlangan bo‘lib u ayollar ijodi bilan bog‘liq . Sozanda bu - yakkaxon aytimchi bo‘lib u qo‘lida qayroq yoki zang (Qo‘ng‘iroqcha) ushlab raqsga tushadi va qo‘shiq bandlarini kuylaydi. Ikki uch ayoldan iborat doirachilar dastasi esa naqorotlarga jor bo‘lib turadi. Demak sozanda dastasida jami uch, to‘rt ayol yakkaxon sozanda, doirachi naqorotchi qatnashadi. An’anaga ko‘ra sozanda dastalari o‘z san’atini faqat xotin qizlar davrasida o‘tkaziladigan yig‘in to‘y va turli bayramlarda namoyish etadi. Ularning repertuari o‘zbek va tojik tilida bo‘lgan ko‘p qismli o‘yin aytim turkumlaridan iborat bo‘ladi. Shuningdek aytim qo‘shiqlarni ham O‘zbek ham Tojik tillarida kuylash an’anasi mavjud. Odatda sozanda o‘z aytimini vazmin lekin tantanavorlik ruhi bilan sug‘orilgan “To‘y muborak” qo‘shig‘i bilan boshlaydi. Sozanda asta jadallashib boruvchi raqs o‘yin aytimlarini birin – ketin ijro etadi.

Farg‘ona - Toshkent musiqa uslubi haqida tushuncha

Farg‘ona -Toshkent musiqa uslubi deganda Farg‘ona vodiysi , Toshkent shahri va

viloyatlari hududida qaror topgan musiqiy an’analar majmuidir. Bunda xalq musiqasiga oid kuy, terma, lapar, yalla, qo‘shiq, ashula kabi aytim janrlari, shuningdek dostonchilik, ashulachilik, maqomchilik kabi kasbiy musiqa o‘z aksini topgan. Unda bolalar folklori , xotin – qizlar ijodi, yallachilik, ashulachilik va cholg‘u kuylari munosib o‘rin egallagan. Bolalar folklori bo‘lgan “ Boychechak ”, “Yomg‘ir yog‘aloq”, “Oftob chiqdi”, “Chuchvara qaynadi”, “Chittigul” kabi qo‘shiqlar kiradi. Xotin – qizlar davrasida laparu yallalar , to‘y marosim qo‘shiqlari, “Yor – yor va Kelin salom” qo‘shiqlari kuylanadi. Farg‘ona -Toshkent musiqa uslubida “Katta ashula” yo‘li ham mavjuddir. Unda deyarli barcha cholg‘u sozlaridan foydalanilgann.

Katta ashula Farg‘ona – Toshkent musiqa uslubining o‘ziga hos yo‘nalishlaridan biridir. Chunki kasbiy musiqaga oid bu ashula janri boshqa mahalliy usjublarda uchramaydi. Katta ashula yirik hajmli va kuy ohanglari keng nafasga mo‘ljallangan ashula bo‘lib, u yakka hofiz ashulachi yoki 2-4 hamnafas hofizlar tomonidan aytiladi. Bunda cholg‘ulardan foydalanilmaydi. Bu turdagi ashulalar rivojlangan kuylarga ega bo‘lib, odatda erkin ritm o‘chov asosida badiyhaviylik xususiyatlari bilan kuylanadi. Mazkur janrning “Patnisaki ashula”, “Likobli ashula” singari boshqacha nomlanishi ham mumkin . Hofizlar ijro paytida qo‘llarida likopcha yoki patnis ushlab turadilar. Keyingi yillar davomida ayrim katta ashulalarni cholg‘ular yordamida ijro etish ham qo‘llanila boshladi. Bunga “Mehnat ahli”, “Ey dilbari janonim”, “O‘zbekiston” kabi katta ashulalarni misol keltirish mumkin. Katta ashulalarni nayda ijro etish ham an’anaga aylangan.

Yallachilik san’ati.

Farg‘ona - Toshkent musiqa uslubida xotin – qizlar ijodi unumli bo‘lib , ular orasida jumladan tarafma – taraf bo‘lib lapar aytishlar , turli qo‘shioqlarni kuylash, to‘y marosim aytimlari bo‘lgan “ Yor – yor ”, “ Kelin salom ” va o‘lanlarni kuylash ommaviy tus olgan . Bularning ichida yallalar ayniqsa sevib ijro etiladi. Yalla – bu band - naqorat shakliga ega aytim bo‘lib , u raqsga tushib kuylanadi. Bunga yakkahon yallachi doira jo‘rligida raqsga tushib bandlarni kuylasa naqoratlarni davrada ko‘pchilik qo‘shilib aytadi. Buxoro – Samarqand Sozandalari, Xorazm xalfalari san’atiga yaqin bo‘lgan kasbiy yallachilar ham bolib, ular yakka holda yoki ansambl bo‘lib namoyon bo‘ladi. Yallachilar 3-4 ayoldan iborat bo‘lib odatda doira jo‘rligida kuylashadi.

Xorazm musiqa uslubi - mazkur vohadagi xalq qo‘shiq va laparlari ,turli marosim, tomosha va oyin raqs kuylari hamda dostonchilik, ashulachilik va maqom san’ati kabi kasbiy musiqa an’analaridan tashkil topgan. Xorazm musiqasining ma’lum darajada Turkman va Ozarbayjon musiqasiga yaqin jihatlari ham bor. Xorazm musiqa uslubining o‘ziga hosligi an’anaviy musiqa cholg‘ularida ham namoyon bo‘ladi. Masalan bulamon damli puflama cholg‘usi bu uslubda keng qo‘llaniladi. Xorazm musiqa uslubida raqs va umuman o‘yin harakatlari bilan bog‘liq cholg‘u kuylari salmoqli o‘rin tutadi. Ular bir necha turlarga bo‘linadi.

1. Xalq orasida ommalashgan raqs - “Lazgi”, “Ganji qora bog‘”, “Uffori”.
2. Dorbozlarning o‘yin kuylari – “Elpazalandi” , “Ufori elpazalandi”.
3. Qiziqchi va masharabozlarning o‘yin kuylari – “Chog‘olloq” , “Az –az”, “Xorazmcha”,

“Yuz bir”, “Ot eroni”, “Surnay yo‘li ”

Xorazm san’atida dostonchilik ham rivojlangan. U Surxondaryo - Qashqadaryo dostonchiligidan farqli jihatlarga ega.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, har bir musiqa o‘qituvchi-talabalar va o‘quvchilar o‘zbek xalq musiqasini bilishi lozim. Binobarin, madaniyat va ma’naviyat rivojlanishi shu jabhalarda ham o‘z aksini topadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alisher Navoiy. “Mahbub ul-qulub” T., 1987-y.
2. “Fol’klor ansambli” (Metodik ko‘rsatma) T., 1999-y.
3. Karamatov folklorim. “O‘zbek xalq musiqa merosi” III tom
4. “O‘zbek musiqasi tarixi”. – Tuzuvchi T.E.Solomonova 1981-y.
5. “Xalq og‘aki poetik ijodi” – O.Madayev, T.Sobitova. Toshkent 2010-y.
6. Abduvali o‘g‘li, A. A. (2023). XX ASR MUSIQA SAN’ATI RIVOJINING BA’ZI XUSUSIYATLARI. Gospodarka i Innowacje., 35, 729-734.
7. Абдусатторов, А. А. Ў. (2023). ЎРТА ОСИЁ ХАЛҚ ЧОЛҒУ ОРКЕСТРЛАРИНИНГ ШАКЛЛАНИШ БОСҚИЧЛАРИ. Science and innovation, 2(Special Issue 5), 521-526.
8. Бурҳонов, Р. М., Алиев, С., Габриэлян, С., & Гиенко, Б. ЎРТА ОСИЁ ХАЛҚ ЧОЛҒУ ОРКЕСТРЛАРИНИНГ ШАКЛЛАНИШ БОСҚИЧЛАРИ Абдусатторов Абдужалил Абдували ўғли.
9. Abdusattorov, A. (2023). MUSIQA DARSLARI JARAYONIDA KOMPYUTER TEXNALOGIYALARIDAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI. Наука и инновация, 1(9), 8-12.
10. Abdusattorov, A. (2023). TORLI KVARTET UCHUN ASARLAR YARATISHNING METODOLOGIK BOSQICHLARI. Наука и инновация, 1(9), 4-7.
11. Абдисатторов, А. А. Ў. (2022). БАСТАКОРЛИК ИЖОДИДА МУСИҚА ФОЛЬКЛОРИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10-2), 602-605.
12. Abdusattorov, A. (2020). About Makom Melodies Adapted for Orchestra of Uzbek Folk Instruments. International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development, 2(11), 28-30.
13. Adiljanovna, A. M., Nurullaevna, N. M., Abdumalikovna, Y. D., Sharobidinovich, M. J., Abdujalil Abduvalio‘g‘li, A., & Behzod Asqaralio‘g‘li, T. (2021). Academic Yunus Rajabi and His Scientific Heritage. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 9092-9100.